

## Irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarida ilmiy kuzatuv

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 avgustdag'i "Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4801 - sonli qarori bo'yicha hozirgi kunda Jizzax va Sirdaryo viloyatlarining irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarida keng ko'lamlı ishlari olib borilmoqda.



Qarorda keltirilgan topshiriqlar doirasida irrigatsiya va melioratsiya ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihibariga ilmiy texnik xulosa berish hamda ishni bajarish jarayonida kuzativ ishlari olib borish bo'yicha Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti bilan va "Sirdaryosuvqurilishinvest" va "Jizzaxsuvqurilishinvest" Davlat muassasalari o'rtasida shartnomalar imzolangan bo'lib, institutning professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, magistrleri va talabalari shartnomalarining bajarilishida ishtirok etishmoqda. 2021 yilning 11-12 sentyabr kunlari Irrigatsiya va melioratsiya kafedrasi dotsentlari Mamataliyev A.B. va Bortirov Sh.Ch rahbarligida kafedra mustaqil tadqiqotchisi Yulchiyev D.G., tayanch doktorant Mardihev Sh.H. va stajyor-tadqiqotchi Malikov E.N. lar Sirdaryo viloyatidagi qurish va rekonstruksiya ishlari olib borilayotgan irrigatsiya va melioratsiya obyektlariga navbatdagi tashrifni amalga oshirdilar.



Tashrif davomida rekonstruksiya ishlari olib borilayotgan Sardoba tumanidagi ЦК-6а, ЦК-6а-1, К-7-8, К7-8-2-1, 4-К-3, 7-К-3, Oqoltin tumanidagi 10-К-2, 17-К-1, 17-К-2, 17К-1-1 kollektorlarida kuzatuv ishlari amlga oshirildi. Bu jarayonda "Sirdaryosuvqurilishinvest" Davlat muassasasi bosh muhandisi Jalilov S., har bir ob'ektning texnik nazoratchilari va qurilish tashkiloti xodimlari ishtirok etdilar. Kuzatuv ishlari vaqtida ba'zi kamchiliklar ko'rsatib o'tildi, bu kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha ko'rsatmalar, maslahatlar berildi. Shu bilan birgalikda institut professor-o'qituvchilari tomonidan kollektor tarmoqlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha master-klass o'tib berildi. O'bektarda rekonstruksiya ishlari tugagunga qadar ilmiy kuzativ ishlari davom ettiriladi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**